

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

TA'LIM ZIYOSI

UNIVERSITET
GAZETASI

11-son

Gazeta ichida gazeta



Ushbu sahifa 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kunitga bag'ishlanadi

OCHIQ OSMON
OSTIDAGI MAKTAB

Kuni kecha universitetining Pedagogika fakulteti jamoasi tomonidan Parkent tumanidagi 1-sonli maktabda navbatdagi "Ochiq osmon ostidagi maktab" loyihasi doirasida ijtimoiy va metodik tadbir o'tkazildi. Tadbirning asosiy maqsadi – imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim sifatini oshirish, ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda pedagog va ota-onalarga amaliy yordam ko'rsatishdir.

Tadbir davomida psixolog va pedagog mutaxassislar tomonidan intensiv diagnostika ishlari amalga oshirildi. Ushbu tizimli jarayon qisqa vaqt ichida bolaning ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanish darajasini chuqur tahlil etish imkonini beradi. Bolalarning psixofiziologik holati o'rganilib,



individual rivojlanish xaritalari tuzildi hamda samarali korreksion-pedagogik yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tadbirda ilk bor talabalar tomonidan yaratilgan "Mobil-ekoinklyuziya" laboratoriyasi o'z faoliyatini namoyish etdi. Ushbu laboratoriyada tabiiy materiallardan – tosh, chig'anoq, don, suv, yong'oq va tuxum



po'chog'idan tayyorlangan vositalar orqali bolalarning aqliy va ijtimoiy rivojlanish darajalari o'lchandi. Bu ijodiy yondashuv ota-onalar va bolalar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi.

Tadbir davomida 58 nafar bolaga qisqa muddatli psixodiagnostika o'tkazildi. Natijada, 33 nafar bolada og'zaki hisoblash, atrofini idrok etish va tezkor tanishish ko'nikmalari shakllangani kuzatildi. Bundan tashqari, talabalar har bir bolaga birlashtirilgan, ularning individual ehtiyojlariga mos metodik yordam ko'rsatildilar.

Inklyuziv ta'lim o'qituvchilari, logopedlar va psixologlar o'rtasida master-klasslar tashkil etildi. Darslar davomida zamonaviy pedagogik



yondashuvlar amaliyotga tatbiq etildi, stressni boshqarish, empatik muloqot va inklyuziv qadriyatlarini chuqur anglash ko'nikmalari mustahkamlandi. Universitet mutaxassislar tomonidan o'qituvchilarga yangi metodik qo'llanmalar taqdim etildi.

Talabalar o'z metodik ishlanmalarini ko'rgazma shaklida taqdim etdilar. Bu ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, innovatsion g'oyalarni namoyish etish imkonini berdi. Tadbir yakunida esa "Zamonaviy Zumrad va Qimmat sarguzashtlari" nomli inklyuziv teatr sahnalashtirildi. Ushbu spektaklda imkoniyati cheklangan bolalar, talabalar va o'qituvchilar bir sahnada chiqish qilib, san'at orqali ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashdi.

"Ochiq osmon ostidagi maktab" loyihasi – bu nafaqat ta'limiy tashabbus, balki mehr, bag'rikenglik va innovatsiya uyg'unlashgan maydon. Tadbir ishtirokchilari bolalarning imkoniyatlarini ochish, pedagoglar malakasini oshirish va inklyuziv qadriyatlarini targ'ib etish yo'lida yana bir muhim qadam tashladilar.

hisoblanadi.

Dotsent ilmiy izlanishlarni ham faol davom ettirmoqda. Maxsus pedagogika sohasida olib borayotgan tadqiqotlari imkoniyati cheklangan bolalarning hayotiga bevosita ta'sir etuvchi amaliy yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Shaxnoza Kobilova haqida so'z borganda uni lavozim, ilmiy daraja yoki darslar bilan chegaralash qiyin. U – kasbiga sadoqatli mutaxassis, jamiyat uchun zarur shaxs, shogirdlari uchun ruhiy tayanch, mehribon va talabchan ustozdir. U bilan suhbatlashgan har bir talaba ustozning e'tibori va qo'llab-quvvatlovidan bahra oladi. U nafaqat bilim beradi, balki yo'l ko'rsatadi. Nafaqat o'rgatadi, balki ilhom bag'ishlaydi. Shunday fidoyi ustozlar bor ekan, ta'limning ertasi, yurtning kelajagi porloq bo'ladi.

Maxsus pedagogika kafedrasini
jamoasi

Chirchiq davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashining qaroriga muvofiq, Maxsus pedagogika kafedrasini 2021-yilda tashkil etilgan.

Barcha inson uchun mos sifatli ta'limni dunyoning har bir nuqtasida ta'minlashda xususiy harakatlarni barqarorlashtirish – Kafedraning asosiy missiyasi. Asosiy maqsadimiz esa, inklyuziv va maxsus ta'lim uchun sifatli kadrlarni innovatsion g'oya va amaliyot uyg'unligida ta'minlashdir.

O'quv dasturlari Kafedra bakalavriat va magistratura bosqichi talabalariga logopediya, tiflopedagogika, surdotarjimonlik faoliyati, surdopedagogika yo'nalishlarida ta'lim beradi.

Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari va loyihalar Maxsus pedagogika kafedrasini ilmiy-tadqiqot faoliyatida bir qator strategik yo'nalishlarda ish olib bormoqda. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy ta'lim talabalariga javob beruvchi ilmiy tadqiqotlar olib borish, milliy va xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan hamkorlikni kengaytirish hamda amaliy natijalarga erishishni maqsad qilgan.

Ilmiy-metodik markaz: "Bolalar sayyorasi" Kafedra qoshidagi "Bolalar sayyorasi" ilmiy-metodik markazi talabalarining mualliflik metodikalarini laboratoriya sharoitida sinovdan o'tkazish, imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilalariga kompleks xizmat ko'rsatish, bolalarni tezkor diagnostika qilish orqali talabalarining kasbiy yetilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

YELKADOSH JAMOA –
MENING YANGI OILAM

2024–2025-o'quv yilida Chirchiq davlat pedagogika universitetining Maxsus pedagogika kafedrasiga o'qituvchi sifatida qadam qo'yganim – hayotimdagi eng esda qolarli lahzalardan biri bo'ldi. Bu maskanga kelgan ilk kunimdan o'zini meni samimiyat, iltiq va mehr bilan qarshi olishdiki, o'zimni yangi xodim emas, balki yillar davomida shu yerda faoliyat yuritib kelgan insondek his qildim.

Kafedraning eng e'tiborli jihati – uning ahil va ijodkor jamoasi, hamjihatlik ruhida ishlashi hamda doimo yangilik va yuksalish sari intilishidir. Bu yerda har kim bitta maqsad yo'lida nafas oladi, bir-birini qo'llab-quvvatlashni sharaflab deb biladi. Ba'zan o'zimni ularning tezligiga yetolmayotgandek his qilaman, biroq shu zahoti jamoa a'zolari dalda bo'lib yonimga keladi. Ular menga kuch, ishonch va o'z o'rnimni topishimga yordam berishdi.

Kafedramiz a'zolarining tajriba va bilimlari menga tayanch bo'ldi. Qaysi vazifada bo'lmasin, "Birga qilamiz", deya qo'llab-quvvatlashlari menda jamoaviy ruhning asl kuchini namoyon etdi.

Bu jamoaning yuragi – pedagogika fanlari doktori, professor Qodirova Feruzaxon Usmanovnadir. U nafaqat rahbar, balki jamoamizning drayveri, yo'l boshchisi, ilhom manbai. Ularning adolatliligi, mas'uliyati, har bir xodimga bo'lgan samimiy munosabati bizni yangi marralarga yetaklaydi.

Feruzaxon Usmanovnaning jamoaga bo'lgan ishonchi, har bir qarori bizni birlashtiradi, maqsad sari yetaklaydi. Shuning uchun biz ularni nafaqat rahbarimiz, balki yo'l ko'rsatuvchi ustozimiz sifatida qadrlaymiz.

Men bu jamoa bilan ishlayotganimdan faxrlanam. Ularning mehribonligi, qo'llab-quvvatlashi va samimiyligi menga har kuni yangi kuch va o'zgacha ruh baxsh etadi. Ushbu maqola – ayni shu jamoaga bo'lgan minnatdorchilim, hurmatim va chuqur ehtiromim ifodasidir.

Durdona TOJIBOYEVA,

Maxsus pedagogika kafedrasini o'qituvchisi

ILM VA MEHR UYG'UNLIGI

Bugungi kunda ta'lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U inson qalbiga yo'l topish, unga ishonch bag'ishlash, jamiyatga teng huquqli shaxs sifatida kirib borishiga ko'maklashishni talab qilmoqda. Ana shunday mas'uliyatli va sharaflab yo'lni fidoyilik bilan bosib o'tayotgan insonlar bor – ular jamiyat taraqqiyoti tayanchidir. Shunday fidoyi ustozlardan biri – Chirchiq davlat pedagogika universitetining Maxsus pedagogika kafedrasini dotsenti Shaxnoza Kobilovadir.

Shaxnoza Xudayshukurovna har bir talabaga alohida e'tibor bilan yondashadi. Ustozning fikricha, talabalar kelgusida qanday mutaxassis bo'lib yetishishi bevosita bugungi tayyorgarligiga bog'liq.

Shu bois, uning darslari shunchaki ma'ruza emas, har bir mashg'ulot – tajriba, mas'uliyat va izlanish uyg'unligidan iborat. U talabalarga bilim berish bilan birga, kasbiy dunyoqarashini shakllantiradi, qalblariga mehr, insonparvarlik va kasbga sadoqat urug'larini ekadi.

Bugungi kun ta'limi faqat nazariyani emas, amaliy ko'nikmalarni ham talab

qilmoqda. Shaxnoza Xudayshukurovna rahbarlik qilayotgan "Logopedik massaj" to'garagi esa talabalar uchun haqiqiy amaliy maktabga aylangan.

Bu to'garakda talabalar bolalarning nutq apparati motorikasi bilan ishlash, logopedik massaj texnikalarini bosqichma-bosqich egallash, nutq buzilishlarida individual yondashuv hamda real vaziyatlarda professional qaror qabul qilishni o'rganadilar.

Ustoz har bir mashg'ulotda nafaqat nazariy bilim beradi, balki amaliy yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Uning mahorat darslari talabalar uchun yangi bilim va tajriba manbai

OVOZSIZ QALBLARGA YORUG'LIK ULASHIB

Mamlakatimizda ta'lim siyosati nafaqat bilim berishga, balki har bir bolaning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini hayotga tatbiq etish muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida ham bu borada salmoqli ishlar olib borilayotganligini ta'kidlash joiz. Biz saboq olayotgan maxsus pedagogika fakultetida amaliyot va nazariy bilimlar birlashtirilgan holda, har bir talabaga zamonaviy metodlar orqali ish olib borish imkoniyati yaratilgan. Bu yo'lida biz ustozimiz Ubayda Fayziyevadan kasb mahorati, yangi metodlar ustida ishlash borasidagi

barcha bilimlarni o'rganmoqdamiz. Ubayda Yunusovna biz uchun nafaqat ustoz, balki surdopedagogikaning bilimdoni, cheksiz mehr-muhabbat timsolidir.

Ustozning darslari doimo hayotiy va amaliy, bolalarning ehtiyojlariga mos, kasbni sevishga ilhomlantiradi.

Laboratoriyada biz ilk bor koxlear implantlar, eshitish apparatlari, audiopedagogik mashqlar, vibrotaktik

sezgirlik mashg'ulotlari va nutqni shakllantirish bosqichlarini o'rgandik.

Ubayda Yunusovnaning yondashuvlari butun respublikada keng qo'llanib kelinmoqda. Ustozimiz doim: "Surdopedagog bola uchun ovoz emas, yorug'lik olib kiradi" deydi.

Har bir dars va mashg'ulotda biz ustozning ilmiy saviyasi, bolalarga bo'lgan mehr-muhabbati va talabaga bo'lgan ishonchini his qilamiz.

Ustozimiz bizga nafaqat bilim va tajriba, balki mehr, sabr va mas'uliyat timsolini o'rgatmoqdalar. Buning uchun jonkuyar



ustozimizga minnatdorchilik bildiramiz va kelajakda surdopedagogika maktabining munosib davomchilari bo'lishga intilamiz.

ChDPU Surdopedagogika
yo'nalishining 4-bosqich talabalari

Ustozga ehtirom



KO'ZIMNING NURIGA AYLANGAN USTOZ

Chirchiq davlat pedagogika universitetining Maxsus pedagogika fakulteti Tiflopedagogika yo'nalishi

talabalari uchun haqiqiy ilhom manbai – bu Zulayho Hamidullayevna Xusnuddinovadir. Men, ko'zi ojiz talaba sifatida, uning mehribon va doimiy qo'llab-quvvatlashi bilan o'qish yo'lida ishonch va quvvat topdim.

Ustozim har bir darsni talabalarga moslashtirib o'tadi, kasbimizning sir-asrorlarini menga qiziqarli va tushunarli tarzda o'rgatadi.

Bir kuni sinfda yangi o'quv mashqlarini bajarayotgan edik. Men bir mashqda biroz qiynalдим, boshimni egib o'tirgan edim. Shu payt Zulayho Hamidullayevna meni chaqirdi, kulib:

“Xo'p, qarang, bu oddiy mashq emas, bu sizning kichik sehringizni sinovdan o'tkazmoqda!”, deb aytdi. So'ng u menga mashqni qanday qadamba-qadam o'rganishimni ko'rsatdi, har bir qiyinchilikni menga moslashtirib tushuntirdi. Shu jarayonda men

nafaqat mashqni o'rgandim, balki ustozning hazil bilan o'rgatish usullariga qoyil qoldim. Bu voqea men uchun unutilmas bo'ldi: u nafaqat bilimni, balki sabr, hazil va ijobiy ruhni ham o'rgatishi mumkinligini ko'rsatdi.

Zulayho Hamidullayevna mening ko'zimning nuri. Har bir muvaffaqiyatim va har bir kichik yutug'imda uning sabr-toqati va mehrini sezaman. Ustozimning darslari faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, ular – hayotiy saboqlar, ruhiy kuch va motivatsiya manbai. Uning samimiy yondashuvi tufayli men o'zimni ishonchli his qilaman. Zulayho Hamidullayevna har doim: “Sen qila olasan, sening imkonning cheksiz”, deydi va men bu so'zlarni har kuni qalbmida his qilaman. U meni nafaqat talaba sifatida, balki inson sifatida ham rivojlantiradi, har bir xatolikdan saboq olishimga yordam beradi.

Bugungi kunda men o'z kasbimga qiziqish va ishonch bilan qarayman, va bu – ularning mehnati, bilimga muhabbati va mehri bilan qo'llab-quvvatlashi tufaylidir.

Abduraxmon RAXMATULLAYEV

TALABALIK SARGUZASHTLARI



Universitetining Maxsus pedagogika kafedrasida talantlarni tarbiyalashni juda jiddiy qabul qiladi va bunga ajoyib misol – Sharipov Mirjalol Jamoladdin o'g'li. U kafedrada nafaqat aqlli, balki hazil-mutoyiba bilan ham mashhur talaba.

Mirjalol so'nggi yillarda ilmiy va ijodiy izlanishlarda yetakchi rolni egalladi. U “Taraqqiyot” jamoasining lideri, “LogoRobot” va “LogoMother” loyihalarining muallifi. Shuningdek, inklyuziv

talimning barcha qoidalarini biladi va bolalarning o'yin terapiyasi bo'yicha tadqiqotlar qiladi – xuddi uyqudagi bolalarning sirlarini ochgandek!

Yaqinda universitetda

o'tkazilgan “Yil talabalari” tanlovida Mirjalol g'olib bo'ldi. Qiziq tomoni shundaki, u o'zi ko'zlagan nominatsiyada emas, boshqa kategoriyada yutdi. Ammo ruhiyati tushmadi, aksincha: “Xo'p, demak, keyingi yil ko'zlaganimga yetaman” degandek, izlanishda davom etdi.

Hozirda Mirjalol “Talabaligim” nomli she'riy to'plam ustida ishlamoqda. To'plamning nomi uning talabalik hayotini mukammal aks ettiradi, har sahifasi quvnoq, lekin mazmunli. Shu jarayonda uning ilmiy rahbari, pedagogika fanlari falsafa doktori Nigora Egamberdiyeva, doimo shogirdini qo'llab, “Mirjalol, sening qo'lingdan keladi!” deb ruhlantiradi.

Aytish mumkinki, Mirjalol nafaqat iqtidori bilan, balki sabr-toqat va ijodiy yondashuvi bilan ham kafedrada o'rnak bo'lib turibdi. Agar u biror ishga kirishsa, ishni biroz kulgili, biroz noodatiy, lekin albatta, esda qolarli qilib bajaradi.

Abdulloh TO'XTAMURODOV

Hayotning eng muhim burilishlari ko'pincha birinchi qadamdan boshlanadi. Men uchun esa bu qadam Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishiga 1-bosqich talabaligimdan qo'yilgan edi. O'sha paytdan boshlab qalbmga o'chmas iz qoldirgan, bilim yo'limni yoritgan, ishonchimni mustahkamlagan Ozodaxon Ishmatova bo'idilar.

Ular ilk bor darsga kirgan kunimizni hech qachon unutmayman. Har bir mavzu, har bir metodika, har bir misol chuqur o'ylangan, mohirona yoritilgan bo'lib, bizning kelajak kasbimizni teran anglashimizga xizmat qilardi. Ular bizni faqat tinglashga balki kasbni his qilishga o'rgatardi.

Tushunmagan mavzuga joy qolmasdi, sababi ustoz tushunmaganingizcha qo'ymaydi. Bu ularning haqiqiy pedagogik mahoratidir.

Ular olib borgan “Profi Arena” kasb to'garagi esa men uchun yangi ufqlarni ochdi. Logopediya, defektologiya va maxsus pedagogika sir-asrorlari aynan shu to'garakda yanada jonlanardi. Men ustozimga havas qildim, havas qilgan sayin o'rganishga intildim, intilganim sayin o'sishga erishdim.

Ustozimning e'tibori, ishonchi va qo'llab-quvvatlovlar natijasida men 2-bosqichning o'zidayoq



mustaqil ravishda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlashni boshladim. Bu yo'lda duch kelgan har bir savolimga ustozimning javobi, har bir qadamimda ularning ko'magi, har bir muvaffaqiyatimda ularning quvonchi bor edi.

Ilmiy faoliyatda ham ustozimning o'rni beqiyos. Birgalikda yozilgan ilmiy maqolalar, konferensiyalardagi chiqishlar, tanqidiy fikrlar va maslahatlar buning barchasi meni kasbiy jihatdan yetukroq bo'lishimga xizmat qildi.

Men ustozimga shunchalik bog'lanib qolganmanki, bugun 4-bosqichni tamomlab, magistraturaga kirishimda ham ularning ta'siri, va ruhiy qo'llab-quvvatlovi bor. Men ham o'qituvchi

emas, yosh olim bo'lishni orzu qilaman.

2025-yilda ustozim pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) ilmiy darajasini oldilar. Bu ulkan mehnat, sabr, tadqiqotlar va fidoyilik samarasidir. Men ularning yonida bo'lganimdan, ular kabi bo'lishga intilayotganimdan baxtiyorman.

Ozodaxon Ishmatova faqat ustoz emas, balki menga yo'l ko'rsatgan nur, kasbni sevdigan shaxs, hayotimdagi eng katta ilhom manbaidir.

Ular mehr bilan o'rgatadi, sabr bilan tinglaydi, ishonch bilan qanot bag'ishlaydi.

Zuxra KAMBILOVA,
4-bosqich talabasi

NAZARIYA BILAN AMALIYOTNI BOG'LOVCHI KO'PRIK

Bugungi talaba uchun faqat nazariya yetarli emas – amaliy ko'nikmalar ham juda muhimdir. Ana shunday tayyorgarlikni kafedramizda muntazam o'tkazilib kelinayotgan amaliy to'garaklar ta'minlaydi.

Har bir to'garak biz uchun shunchaki mashg'ulot emas, balki kelajagimizni shakllantiruvchi maktabdir.

“Logopedik massaj” to'garagida nutq va til rivojlanishi bo'yicha amaliy mashqlarni puxta o'rganamiz. “Profi Arena” kasb to'garagi esa real pedagogik vaziyatlarda ishlash, maxsus pedagogikaning barcha yo'nalishlarida bilim va ko'nikma olish imkonini beradi. “Ovozsiz dunyo” va “Inklyuziv laboratoriya” surdopedagogika va inklyuziv ta'lim bo'yicha amaliy tajriba beradi.

Amaliy mashg'ulotlarni olib boradigan ustozlarimiz – Ozodaxon Ishmatova, Shaxnoza Kobilova, Muborak Dehqonova va Ubayda Fayziyeva bizni bolalar bilan ishlashga, diagnostika va korreksion mashg'ulotlarni amalda o'rganishga, metodik va ijodiy yondashuvlarni shakllantirishga tayyorlaydilar.

Bizning kichik tajribamiz shuni

ko'rsatadiki, to'garaklar ilmiy bilimni amaliy ko'nikmaga aylantiradi, mustaqil ishlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi, bolalar bilan samarali muloqot qilish, diagnostika va korreksion ishlarni olib borish tajribasini beradi hamda har bir mashg'ulot ustozlar bilan bevosita muloqot orqali bilim olish imkonini yaratadi.

Shu bois, har bir to'garak – kasbiy o'sish va amaliy ko'nikmalar makonidir. Bugungi talabalar kelajakda amaliyotga tayyor, mas'uliyatli kadrlar bo'lib yetishishadi.

ChDPU Maxsus pedagogika kafedrasidagi to'garaklar bizni ana shu maqsadga yetaklaydi. Har bir mashg'ulot, seminar va master-klass bizni bilimli, ijodiy fikrlaydigan mutaxassisga aylantiradi. Bugun o'rganayotganimiz ertaga bolalarning hayotiga yorug'lik ulashishga xizmat qiladi.

ChDPU Maxsus pedagogika
yo'nalishi talabalar jamoasi

ILM SARI YETAKLOVCHI NUR

Ilm yo'li – bu izlanish, mehnat va izchil sa'y-harakatlar talab etadigan mas'uliyatli yo'ldir. Ammo bu yo'lining yorug' bo'lishi, mashaqqatlar yengil kechishi va har bir bosqichi ma'noli o'tishi ko'p jihatdan insonning yo'lini yoritib turadigan ustozlarga bog'liq. Mening hayotimda ana shunday yorug' chiroq – pedagogika fanlari doktori, professor Qodirova Feruzaxon Usmanovna bo'ldi.

2021-yildan boshlab Maxsus pedagogika kafedrasiga o'qituvchi sifatida qadam qo'yganimga, men ilmning murakkab, ammo jozibali olamiga ilk bor kirib kelgan edim. O'sha paytda kafedramiz mudiri bo'lgan professor Feruzaxon Usmanovnaning samimiy tabassumi, iliq yondashuvi, mehr bilan yo'l ko'rsatuvchi rahbarlik uslubi menga kuch va ishonch bag'ishladi. Ularning bir qarashidanoq insonni tushunishga qodir bo'lgan dilkashligi, har bir xodim bilan alohida ishlay olish mahorati meni bu jamoaga yanada yaqinlashtirdi.

Bugun faxr bilan ayta olamanki, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga erishgan bo'lsam, bunda ustozimning o'rni beqiyosdir.

Kafedramizda faoliyat yuritayotgan 5 nafar izlanuvchining

har biri ustozimizning e'tiboridan chetda qolmaydi. Har birimiz bilan alohida olib boradigan suhbatlari, yo'nalishimizga mos ravishda bergan tavsiyalari – ularning qanchalar fidoyi, yuksak pedagogik mahoratga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunday ustoz soyasida ilmga sho'ng'ish – baxt, sharaf, ayni paytda, mas'uliyatdir.

Inson hayotidagi eng katta baxtlardan biri – uni qo'llab-quvvatlaydigan, to'g'ri yo'l ko'rsatadigan ustoz bo'lishidir. Men ustozim bilan ishlayotganimdan faxrlanaman.

Ozodaxon ISHMATOVA,
Maxsus pedagogika
kafedrasida o'qituvchisi

Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-xizmati tomonidan tayyorlandi.